

**BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI
PEDAGOGLARINI PEDAGOGIK FANLARNI CHUQURLASHTIRILGAN
HOLDA O‘QITISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

Karimjonov A.

CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti.

Karimjonova D.A.

*CHDPU «Maktabgacha ta’lim metodikasi»
kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi davr talablari asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqori malakali mutaxassislar ya’ni yuqoriy salohiyatli pedagog kadrlar tayyorlash va ularni bilim, ko‘nikma va malakasini fanlarni chuqurlashtirilgan holda o‘qitish vositasida mexanizmini takomillashtirish chora tadbirlari o‘z aksini topgan, xususan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida yuqori sifatli pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar; *Professional tayyorgarlik, chuqurlashtirilgan, Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot, takomillashtirish, strategiya, boshlang‘ich va maktabgacha, tizim, mexanizm, sifatli, xodimlarini qayta tayyorlash, asosiy yunalishlari, malakasini oshirish, maqsadlar, rivojlantirish, xususiy sektor, natijalar, demokratik islohotlar, pedagogik, yuksak malakali.*

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdaqi PQ-2707-son «2017—2021 yillarda boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdaqi 929-son «O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida»gi qarorga asosan ilk va boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarini kasbiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, ularni bilimni chuqurlashtirilgan fanlar orqali takomillashtirish darajasini ko‘tarish va maktab

ta’limiga tayyorlash hozirgi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ni xalq maorifi oldiga quyilgan eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

“Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarini tayyorlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish taqozo etiladi. Buning uchun bizning yondoshuvimizga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim jarayonida uqitilayotgan *pedagogik fanlarni* chuqirlashtirilgan holda o‘qitish mexanizmini muhim ahamiyatga ega. Bu urinda mazkur masalaning to‘liqligiga e’tiboringizni tortamiz.

1. O‘qitilayotgan pedagogik fanlar vositasida. Oliy pedagog ta’lim muassasalarining boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim yunalishi pedagogik uquv fanlari dasturlarini taxlil qilish shuni kursatadiki, ularda boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglariga kasbiy- nazariy bilim berish, ularning kasbiy kunukma va kasbiy malakalarini shakllantirishga ustuvor darajada ahamiyat berilgan. Misol uchun, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” va “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” o‘quv fani dasturida talabalarning maktab va maktabgacha ta’lim nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi buyicha bilim, kunikma va malakalarini shakllantirishga asosiy e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan oliy pedagog ta’lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim yunalishi o‘quv fanlarining dasturlarini Taraqqiyot strategiyasi asosidan yanada takomillashtirish bilan boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirishning bir usuliga ega bo‘lish mumkin. Shu jihatdan boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim yunalishida o‘qitilayotgan quyidagi o‘quv fanlarini dasturlarini Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) “Umumiy pedagogika”;
- 2) “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”;
- 3) “Pedagogika nazariyasi va ta’rixi”;
- 4) “Pedagogik mahorat”;
- 5) “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”.
- 6) “Tarbiya fani o‘qitish metodikasi”.
- 7) “Mutaxassislik fanlar metodikasi”.
- 8) “Nutq o‘stirish fanlar metodikasi”.

Mazkur masala buyicha bizningcha, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1) pedagogik o‘quv fanlari dasturlarini Taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek zamonaviy va yangi dunyoviy bilimlar bilan boyitish;

2) takomillashtirilgan dasturlar asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim pedagoglarini tayyorlash va unda ta‘limning 1-3 kurslardayoq talabalarning kasbiy bilim, kasbiy kunukma, hamda kasbiy malakasini to‘luq shakllantirishga erishish;

3) pedagogik o‘quv fanlari dasturlarida PISA, STEAM kabi halqaro ta‘lim dasturlarining qoidalarini aks ettirish bilan professional boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim pedagoglarini tayyorlash.

4) pedagogik fanlarni (pedagogika, maktabgacha pedagogika, pedagogika nazariyasi, pedagogik mahorat va tarbiya hamda mutaxassislik) o‘qitish jarayonida o‘quv va ishchi dasturlarini mavzular ketmaketligini va mavzular bazasini bir-biriga uxshashlik mexanizmini takomillashtirish zarur.

Bunday yondashuv oliy pedagogik ta‘lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmini takomillashtiradi. Chunki bu bilan oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim muassasalari pedagoglarini tayyorlash mexanizmini o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish bilan takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar vositasida takomillashtirish. Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim yunalishi o‘quv fanlari buyicha qushimcha mashg‘ulotlar tashkil etib, uning vositasida maktabgacha ta‘lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirishga erishish mumkin. Qushimcha ta‘lim – bu o‘quv fanlari ukituvchilari tomonidan talabalarning bo‘sh voqtlarini hisobga olib, tashkil etiladigon ta‘lim va tarbiya jarayonidir. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida pedagogik va mutaxassislik fanlari buyicha qushimcha ta‘limni tashkil etishda quyidagilarga e‘tibor berish kutilgan samarali beradi:

1) Taraqqiyot strategiyasida belgilanganedik, qushimcha ta‘lim dasturlarini sifatli ta‘lim talablari asosida ishlab chiqish;

2) ishlab chiqilgan qushimcha ta‘lim dasturlari asosida talabalarga pedagogik o‘quv fanlarining muayyan mavzularini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish;

3) qushimcha ta’lim dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarning kompetensiyalarini (bilimi, kunikmasi va malakalarini) tezkor ravishda shakllantirish.

E’tibor berilsa, qushimcha ta’lim keng imkoniyatlarga ega. Eng asosiysi bunday ta’limni asosiy maqsadi va vazifasi talabalarning kasbiy kunikmalarini shakllantirish hamda layoqatini rivojlantirishdan iborat. (Tadqiqot natijasi bu muammolarni yechimini aks etiradi.)

Qushimcha ta’lim oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmini takomillashtiruvchi muhim ta’lim – tarbiya jarayonidir.

3. Maxsus kurslar vositasida takomillashtirish. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarni tayyorlash mexanizmini takomillashtiruvchi vositalaridan biri maxsus kurslardir. Maxsus kurslar oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashi bilan kelishilgan holda tashkil etilib, ular vositasida bo‘lajak mutaxassislariga chuqurlashtirilgan kasbiy bilim, tarbiyaviy kunukma va faoliyat malakasi beriladi. Shu jihatdan bizningcha, maxsus kurslarini tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) pedagogik o‘quv fanlarining modullari buyicha Taraqqiyot strategiyasi talablari asosida maxsus kurslar tashkil etish;

2) “ Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarini tayyorlash mexanizmlari” maxsus kursini tashkil qilish orqali natijalarini yaqqol kursata beradi degan umiddamiz.

3) tajribali professor – uqituvchilar va amaliy faoliyatdagi individual uslublariga ega boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglari ishtirokida davriy (bir haftali yoki un kunlik) maxsus kurslar tashkil etish.

Bunday maxsus kurslarning tashkil etish vositasida oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga erishish mumkin.

Umuman, boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagogik fanlarni chuqurlashtirilgan holda o‘qitish vositasi bilan tayyorlash mexanizmini takomillashtirishning imkoniyatlari keng. Buning uchun oliy pedagog jarayonida pedagogik va mutaxassislik o‘quv fanlarining professori – o‘qituvchilari faol bo‘lishi

taqozo etiladi. E’tibor berilsa, bu boradagi imkoniyatlar amaliy xususiyatlarga egaligi bilan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mujallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tugrisida”gi Farmoni.//”Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022 yil 1 fevral soni.
2. O‘zbek pedagogik ensklopediyasi. 2-jild.-T.,2016
3. Hasanboev J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug‘at.-T.,2009
4. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. 470-bet
- 5.Karimjonov A.,Karimjonova D.A. “O‘quv muassasalarida me’yoriy hujjatlarni yuritish” Toshkent “FIRDAVS” 2020
- 6.Karimjonov A.,Karimjonova D.A. “Bozy va inkishofi nutq” dar ta’limi savod. Toshkent. “Ishonch-hamkor” 2021.
7. D.R.Turg‘unpo‘latov. Ta’limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o‘qitishning yangi eposi. “Science time” international scientific journal. 3 (1). 90-95-betlar.
8. D.R.Turg‘unpo‘latov. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. “Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda echimlar” (Namangan), 2021, 156-158-b.
9. Д.Р.Турғунпўлатов. О.О.Абдуллаева. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. “O‘zMU xabarlar” Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-б.